
Farg'ona shahar fuqarolaridan tushgan takroriy va ijobiy hal etilmagan murojaatlar qayta o'rganilmoqda

Farg'ona shahrida "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da fuqarolar murojaatlarining ijobiy hal etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sayyor qabullar davomida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, Ishonch telefonlari, virtual qabulxonalar orqali tushgan murojaatlar ham doimiy nazoratga olingan.

Murojaatlarning muntazam tahlil qilib borilishi orqali faoliyatini samarali yo'lga qo'ymagan bo'limlar, korxonalar va tashkilotlarga amaliy yordamlar ko'rsatish bilan birga ogohlantirishlar hamda intizomiy choralar ham berilmoqda.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida tushgan murojaatlar Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov tomonidan tahlil qilindi. A.Qodiriy, Madadkor, To'qimachilar va Shakarqishloq mahallalarida yashovchi o'nga yaqin fuqarolar tomonidan bir turdagi murojaatlar ijobiy hal etilmagani bois bir necha bor takroran yana qayta yo'llangan.

Murojaatlar shahar hokimi hamda tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirokida joyiga borib o'rganildi. 4 ta murojaat joyida hal etildi. Yana ikkita murojaat ham "Farg'ona suv ta'minoti" MChJ shahar filiali xodimlari tomonidan ayni damgacha hal etildi.

Shakarqishloqlik Valijon Abdullayevning avtoavariya natijasida o'zini sog'lig'ini tiklash hamda uy-joyini ta'mirlash bo'yicha qilgan shikoyati yuzasidan ishchi guruhi tuzildi. Shuningdek, "A.Qodiriy" mahallasida yashovchi fuqaro Zulfiyaxon Kamolovning sud-huquq masalasida qilgan murojaati yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi.

Farg'ona shahar fuqarolaridan takroriy va ijobiy hal etilmagan murojaatlarni qayta o'rganishlar davom etmoqda.

2022-05-11 17:30:39